TASAVVUFIY TAFAKKUR VA TARBIYA: BARKAMOL AVLOD KONSEPSIYASI

Qodirov Valijon Abdurahmonovich
pedagogika fanlari doktori,
Andijon davlat pedagogika instituti professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvufiy tafakkur hamda uning barkamol avlod va komil inson tarbiyasidagi metodologik o‘rni yoritilgan. Muallif oiladagi dastlabki tarbiya, milliy-ma’naviy ildizlarni tiklash zaruriyati hamda G‘arb tarbiya ta’limotlarining cheklanganligini ko‘rsatib bergan. Tasavvuf ta’limotidagi nafsni yengish va ishq vositasida ruhiy poklanish mexanizmlari, murshid-murid an’analari hamda Alisher Navoiy asarlaridagi insonga nisbatan ramziy yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, barkamol avlod, komil inson, ruh tarbiyasi, nafs, ishq, murshid va murid, Alisher Navoiy, ma’naviy ehtiyoj, ta’lim tizimi.

Аннотация: В данной статье освещается суфийское мышление и его методологическая роль в воспитании гармонично развитого поколения и совершенного человека. Автор указывает на необходимость восстановления первоначального воспитания в семье, национально-духовных корней и ограниченность западных учений о воспитании. Проанализированы механизмы духовного очищения посредством преодоления страсти и любви в суфийском учении, традиции муршида-мурида, а также символические подходы к человеку в произведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: суфизм, гармонично развитое поколение, совершенный человек, воспитание духа, нафс, любовь, муршид и мюрид, Алишер Навои, духовная потребность, система образования.

Abstract: This article highlights Sufi thought and its methodological role in the upbringing of a harmoniously developed generation and a perfect person. The author demonstrates the need for early family upbringing, the restoration of national and spiritual roots, and the limitations of Western educational teachings. The mechanisms of spiritual purification through the overcoming of lust and love in the teachings of Sufism, the traditions of murshid-murid and the symbolic approaches to man in the works of Alisher Navoi are analyzed.

Keywords: Sufism, a harmoniously developed generation, a per-

fect person, spiritual education, lust, love, murshid and murid, Alisher Navoi, spiritual need, education system.

Oilada farzand tug‘ildi... Farzand bilan qutlug‘ bir fayz, cheksiz quvonch kirib keladi. U ota-onasiga hayotlarining eng baxtli onlarini hadya etadi. Ota-ona uchun farzand o‘z umrlarining davomi, xonadonning o‘chmas chirog‘i. Shuning uchun bu murg‘ak go‘dakning kelajagiga katta umid bog‘lashadi. Yurak ardog‘ida uni parvarish qilishadi. Har bir ota-ona farzandi ulg‘aygach, barkamol inson bo‘lib, el-yurt oldida yuzlari yorug‘ bo‘lishini istaydi. Buning uchun bor imkoniyatini sarf etib, uning tarbiyasiga bag‘ishlaydi. Asrlar osha davom etib kelayotgan an’ana bu. Oddiy, lekin buyuk bir haqiqat. Oddiyligi shundaki, u odatiy, kundalik va hammaga tushunarli hayot tarzi. Buyukligi esa oilaga xos bo‘lgan bu dunyoqarash, bu intilishni jamiyatning o‘z a’zolari, ayniqsa, yosh avlod oldidagi burch va vazifalariga qiyoslash mumkin. Ota-ona farzandining kelajagi uchun qanchalik qayg‘ursa, har bir millat, xalq jamiyatning ertangi kun egasi bo‘lmish yosh avlod kamoloti uchun undan ham ko‘proq qayg‘urishi qarz ham farzdir. Negaki har bir xalq oldida asrlar osha ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan ma’naviy, moddiy boyliklar, shonli an’analar, qutlug‘ urf-odatlar ertaga kimning qo‘lida qoladi, kim ularni ziyon-zahmat yetkazmay, butunligicha rivojlantirib, avaylab-asrab, yana asrlar osha avlodlarga yetkazadi kabi savollar ko‘ndalang turadi. Bu butun xalq, millat gardaniga og‘ir va sharafli mas’uliyatni, burchni yuklaydi.

Mazkur burch va mas’uliyat yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash vazifasini keltirib chiqaradi. Burchni o‘tash, mas’uliyatni bajarish, vazifani ado etish, xalqning hurligiga, mustaqilligiga har jihatdan bog‘liqligini biz yaqin o‘tmishimiz misolida juda yaxshi his qilamiz. Bugungi kunda uning to‘laqonli imkoniyatlari mavjudligi yangilanish davri bergan buyuk ne’matlarning biridir.

Mamlakatimizda ma’rifiy islohotlar va barkamol avlod tarbiyasi baqamti qo‘yilgan tarzda olib borilishi birlamchi asos manbalarda tayin etib qo‘yildi: “Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo‘lmaydi” [1]. qabilidagi ko‘rsatmalar O‘zbekistonning bu borada ajdodlar tajribasiga, milliy an’analarga asoslangan harakat va taraqqiyot yo‘li borligini ko‘rsatadi. Bu harakat xalqimiz uchun ayni paytda hayotiy, aytish mumkinki, tarixiy zaruriyat. Bu zaruriyat yuzaga chiqishining sababi ikki yuzyillikdagi yo‘qotishlar, adashishlar, aldanishlar desak, xato bo‘lmaydi. Asorat davrida millatimizni ma’naviy ildizlaridan uzib qo‘yishga harakat qilindi. Xuddi tariximizni begonalar o‘z manfaati va qarichidan kelib chiqib yozib bergani kabi [2] ta’lim-tar-

biyamizni ham o‘ziga nisbatan mute’lik ruhida shakllantirishni ko‘zlaganlar yo‘lga qo‘ygan edilar. Bunga butunlay bo‘lmasa-da, ammo sezilarli (fojeaviy!) darajada muvaffaq bo‘lishdi ham. Ma’naviy ildizlaridan kam oziqlangan bir qator avlod ruhiyatida mavhumlik, ma’naviy bo‘shliq yuzaga keldi. Maorif tizimidan milliy shakl va mazmun, qadriyatlar siqib chiqarildi. Millatni nafaqat ma’naviy, ruhiy majruhlikka mahkum etish, shuning bilan birga jismoniy zaif qilishga e’tibor qaratildi. Sobiq Ittifoqi mavjudligining so‘nggi choragida O‘zbekiston bolalarni majburiy mehnatga jalb qilish va go‘daklar o‘limi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinda edi. Mustaqillikning dastlabki yigirma olti yilida ham bu asoratlardan to‘la-to‘kis qutulolmaganimiz bois siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va ma’rifiy sohalarda yangilanish zarurati o‘rtaga chiqdi. Xususan, ta’lim va tarbiyada yangicha mazmun va shakldagi barkamol avlod tarbiyasi uchun harakat tarzida yuzaga chiqmoqda.

“Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida quyidagi so‘zlarni o‘qiymiz: "Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga bo‘lgan, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir" [1]. Ushbu so‘zlardan ko‘rinadiki, mazkur harakat yosh avlodni ma’naviy, ruhiy va jismoniy sog‘lamlashtirish maqsadini o‘z oldiga qo‘yadi. Ya’ni asorat davrlarida boy berilgan ma’naviy, ruhiy va jismoniy butunlikni, uyg‘unlikni tiklash ko‘zlanadi. Zero, barkamol avlod – barqaror kelajak poydevori.

Yuqoridagi fikrlar bilan biz barkamol avlodni tarbiyalash harakati butunlay yangilik demoqchi emasmiz, albatta. Aksincha, bu harakat eng qadimiy, ayni paytda doimiy hamdir. Hech bir zamonda biron-bir jamiyat yo‘qki, o‘zining kelajak avlodi uchun qayg‘urmagan bo‘lsa. “Mahriqzamin – hikmat bo‘stoni” to‘plamiga kiritilgan Sharqning juda ko‘plab mutafakkirlarining ta’lim, tarbiya, axloq va ma’naviyat borasidagi aforizmlari bunga dalolat qiladi. Lekin bizdagi mazkur harakatning asosiy o‘ziga xosligi ma’lum zaruratlar, muayyan maqsadlar zamirida davlat siyosati miqyosiga ko‘tarilganligidadir. Tarixda xuddi bizdagidek keng va oliy miqyosda bunday harakatlar u qadar ko‘p kuzatilmagan.

Shu o‘rinda tabiiy ravishda quyidagicha savollar tug‘iladi: mazkur harakatning tarixiy ildizlari nimalarga borib taqaladi? Barkamol avlod tarbiyalashning ruhiy (psixologik), ta’limiy (pedagogik) asoslarini yaratishda nimalarga e’tibor qilinadi va suyaniladi? Ushbu savollarga mufassal javobni katta bir risola qilish mumkin. Biz ularga o‘ta qisqa javob qilib, asosiy manbani qayd etishni, uning nima uchun asosiyligini muxtasar tarzda bayon etishni va so‘ng bosh maqsadga ko‘chishni ma’qul

ko‘rdik.

Yetuk va barkamol inson g‘oyasi barcha diniy, ilohiy kitoblarda asosiy maqsad sifatida talqin qilinadi. Bu borada ular orasida hech qanday tafovut yo‘q. Sababi diniy-ilohiy kitoblarning manbai bir – Olloh taolo tomonidan ekanligi bilan izohlanadi. Ayrim xalqlar nomi bilan bog‘liq falsafa va ta’limotlarda (masalan, hind, bobil, yunon falsafalari) ham yetuk shaxs g‘oyasi yetakchi bo‘lgan. Ta’kidlash lozimki, mazkur falsafa va ta’limotlar qaysidir bir din bilan chambarchas bog‘liq ravishda vujudga kelgan va rivoj topgan. Har bir zamonda din arboblari, ulamolari o‘z davrining yetuk kishisi, zamondoshlarining kamolot yo‘lidagi rahbari bo‘lib shuhrat topgan va tarixga kirgan. O‘tmishimizdan bunga yuzlab misollarni keltirish mumkin. Ayni paytda G‘arbda ham shaxs tarbiyasiga oid ko‘plab qarashlar, ta’limotlar borligini qayd etish o‘rinli. O‘rta asrlarda G‘arbda kalokagatiya tushunchasi ishlangan. Bu atama asli qadimgi yunon falsafasidan olingan bo‘lib, yunoncha kay agatos birikmasidan kelib chiqqan, lug‘aviy jihatdan jismonan va ruhan go‘zal ma’nosini anglatgan. Bu ta’limotda ham yetuk shaxsni tarbiyalash ko‘zda tutilgan. Keyinchalik XVII asrdan boshlab materialistlar bu tushunchaga jismoniy mehnat malakasini egallash zarurligi g‘oyasini qo‘shganlar [4].

XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropada markscha ta’limot shakllandi. U sobiq Ittifoq davrida mamlakatning mutlaq hokim mafkurasiga aylandi. Jamiyatning har bir sohasi uning qarichiga solib o‘lchandi. Bu ta’limot asoschisining: “Tarbiya deganda biz uch narsani tushunamiz: birinchidan, aqliy tarbiya, ikkinchidan, jismoniy tarbiya, uchinchidan, texnik tarbiya” tarzida bergan ta’rifi bilan ruhiy tarbiyaga ikkilamchi deb qaraganligi namoyon bo‘ladi. Bunday qarash hukmron bo‘lgan jamiyatda ma’naviyatsizlik illatining avj olishi shubhasiz.

Islomiyatning ilk davridayoq kurtak yozib, keyinchalik mukammal tizim (sistema) bo‘lib shakllangan tasavvuf dunyoqarashi hozirgi kungacha musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan va butun dunyoda mashhur bo‘lgan ta’limotdir. Bu ta’limot orqali insoniyat islom dinining zohiriy va botiniy go‘zalligini, buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab etdi. Tasavvuf, avvalo, ruh tarbiyasi, ma’naviyat, tafakkur, jismoniyat uyg‘unligi haqidagi ta’limot. Tasavvufning bosh g‘oyasi insonni ruhiy, ma’naviy jihatdan poklash, ya’ni komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda ruhan pok, ma’nan yuksak, jismonan to‘kis inson nazarda tutiladi. Shuningdek, to‘rt muqaddas kitob – Zabur, Tavrot, Injil, Qur’on va ular bag‘ridan o‘sib chiqqan ta’limotlar, falsafalar; “Avesto”, “Bhagavat-gita”, Konfutsiyning “Suhbatlar va o‘ylar” asari va boshqa manbalarda har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash haqida yo‘riqlar, qarashlar mavjud. Ularni eslashdan maqsad – belgilab olish:

qaysi biri bosh maqsadimiz bo‘lgan barkamol avlod (komil inson) tarbiyasi uchun birlamchi asos bo‘la oladi? Xalqimizning dunyoqarashi, intilishi, kayfiyatiga qay biri mos tushadi?

Bir qarashda savolning javobi tayyorday: ularni ajratib nima qilamiz, har biridagi ilg‘or qarashlarni, eng yaxshi xususiyatlarni maqsadga tadbiq qilaverish mumkin. Bu fikrni ham inkor qilib bo‘lmaydi. Lekin har bir falsafa, ta’limot qaysidir bir xalqning mentalitetini, dunyoqarashi, urf-odatlari zamirida shu xalqning ruhiyatiga mos ravishda vujudga kelganini unutmasligimiz kerak. Agar xalqimiz tarixida uning ruhiyatiga, o‘ziga xosligiga mos keladigan ta’limot bo‘lmasa edi, boshqa falsafa, dunyoqarashlarni o‘rganib, ularning eng afzal tomonlarini o‘zimizga mos ravishda qayta ishlab qabul qilishimiz mumkin edi. Bizda esa bunday ta’limot bor. Bo‘lganda ham boshqa ta’limotlardan mukammalligi, ayniqsa, ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarimizga har tomonlama mos tushishligi bilan alohida ajralib turadi. Bu – biz yuqorida qayd etib o‘tgan tasavvuf ta’limotidir. Uni tanlashdan murod milliy g‘urur, iftixor uchungina emas, balki mazkur harakatning intilishlariga muvofiq keluvchi quyida sanab o‘tadiganimiz asoslarning mavjudligidadir.

Birinchi asos – tasavvufdagi komil inson, barkamol avlod konsepsiyasida har tomonlama yetuk, ruhiy, ma’naviy va jismonan barkamol shaxsni tarbiyalash birlamchi maqsad bo‘lgan.

Ikkinchi asos – mazkur konsepsiyaning nazariy va amaliy asoslari diniy-ilmiy va badiiy asarlarda mukammal tarzda ishlab chiqilgan.

Uchinchi asos – boshqa ta’limotlardan farqli o‘laroq tasavvufdagi komil inson konsepsiyasining nazariy va amaliy asoslari asrlar mobaynida millionlab kishilar hayoti misolida ko‘ngillilik asosida sinovdan o‘tgan. To‘rtinchi asos – aynan bizning ko‘hna Turonda asosiy maqsad – komil insonni tarbiyalashning turli shakllari – tasavvuf tariqatlari vujudga kelgan. Yassaviylik, kubraviylik, naqshbandiylik tariqatlarini fikrimiz dalili sifatida keltirishimiz mumkin. Demakki, komil inson, ya’ni barkamol avlodni tarbiyalashning milliy zaminga ega bo‘lgan turli shakl va usullari mavjud.

Beshinchi asos – tasavvufning xalqimiz qoniga, dunyoqarashiga singib ketgan iymon-e’tiqod maslagi bo‘lmish Islom dini bilan bog‘liqligi.

Oltinchi asos – tariximiz, mumtoz adabiyotimiz va mumtoz san’atimizning barcha turlari tasavvuf bilan chambarchas bog‘liqligi, adabiyot va san’at asarlaridagi bosh timsol (obraz) komil inson bo‘lganligi.

Yettinchi asos – mustabid sho‘rolar davrida tasavvufni odamlarimiz ongidan, xotirasidan, turmush tarzidan zo‘ravonlik, tazyiq bilan

siqib chiqarishga urinishlarga qaramay, mustaqillikning dastlabki yillardayoq xalqimiz bu ta’limotni vaqtincha yo‘qotib qo‘ygan o‘zining eng qadrdon, suyukli merosi sifatida qabul qildi va o‘ta chanqoqlik bilan o‘rganishga kirishdi. Bundan anglashiladiki, tasavvuf o‘zbek xalqi ma’naviyatining o‘zagidir. Tarbiyalovchilar, ota-onalarga ardoqli va yaqin bo‘lgan pokiza e’tiqod tajassumi bo‘lmish bu ta’limotni yosh avlodga singdirish ham oson kechadi.

Yuqoridagi fikrlarimiz bilan tanishgan odamda quyidagi o‘rinli savol tug‘ilishi tabiiy: komil inson tushunchasi boshqa ta’limotlarda yetuk shaxs, har tomonlama rivojlangan garmonik shaxs, kalokagatiya kabi turli nomlanishlar bilan ifodalangan.

Tasavvuf ta’limotidagi komil inson konsepsiyasining o‘ziga xosligi nimada? Darhaqiqat ular ma’nodosh tushunchalarga o‘xshab ketadi. Lekin tasavvuf komil insonni Islom dinidan kelib chiqqan holda komil insonni tushuntirish va talqin qilishda o‘zgacharoq yondashadi. Aksariyat hollarda jismonan yetuk deganda sog‘lom, baquvvat, jismoniy benuqson kishi anglashiladi. Aqliy barkamol deganda esa chuqur bilimli, ko‘p fanlardan xabardor, mantiq kuchiga ega bo‘lgan odam tushuniladi. Ma’nan yuksak deb ilm-fanga ko‘ngil qo‘ygan, adabiyot, san’atni chuqur his etuvchi, madaniyatli shaxs tasavvur qilinadi. Bilamizki, keng bilimli, adabiyot va san’atga oshno sportchilar ko‘p. Shuningdek, to‘rt muchasi sog‘, bir yoki bir necha sport turi bilan shug‘ullanadigan olimlar, adabiyot, san’at arboblari bir talay. Ular ma’lum hududda, respublikasida yoki butun dunyoda tanilgan mashhur odamlar. Lekin ba’zida ulardan nosog‘lom turmush tarzi, yengiltaklik, ma’naviy inqirozlar, illatlar zohir bo‘ladiki, ko‘pchilik bundan hayron bo‘ladi. Buning taajjublanarli joyi yo‘q. Chunki ular o‘zlarining aqliy, jismoniy imkoniyatlarini alohida-alohida holda ma’lum darajada rivojlantirganlar, lekin komillashmaganlar. Tasavvufga ko‘ra, insonning jismoniy, aqliy, ma’naviy kamoloti o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bo‘lishi lozim. Islomiy manbalarga ko‘ra, badanda bir a’zo noqis bo‘lgan kishining his-tuyg‘u, sezgilarida ham bir noqislik bo‘ladi. Olim yoki adib kishi nosog‘lom, aytaylik, jinsiy hayot tarzi yoki ichkilikbozlik bilan yashasa, jismonan zaiflashadi hamda ma’nan inqirozga yuz tutadi. Shuning uchun komil inson konsepisiyasida jismonan yetuk deganda sog‘lomlik, baquvvatlik mezonlaridan tashqari, jismoniy hislar, instinktlarni aqlga bo‘ysundirish, ya’ni ularni aql bilan oqilona boshqarilishi nazarda tutiladi. Aql inson hayotida hamma vaqt ham ijobiy rol o‘ynamaydi. U insonni manmanlik, xudbinlik, o‘z manfaati qobig‘iga o‘ralashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu tufayli aql ma’naviyatga bo‘ysundirilishi kerak. Ma’naviyatning shakllanishi esa ruhiy poklanish orqali yuz beradi. Ma’naviy yuksaklik insonning ruhiy poklanish darajasi yoki tasavvuf tili bilan aytganda, in-

sonning Allohga yaqinlik darajasi bilan belgilanadi. Demak, ruh poklansa, ma'naviyat yuksaladi, ma'naviyat yuksalgach, aql sog'lom tafakkur yo'siniga yuradi. Natijada jismoniy kuch-quvvat, tuyg'ular, instinktlar oqilona boshqariladi. Ko'rinadiki, barchasi oxir borib ruhiy poklanishga taqalmoqda. IX asrdan X asr boshlarigacha yashab o'tgan alloma ajdodlarimiz ilmiy, falsafiy hamda adabiy merosida ushbu (ruhiy poklanish) g'oyasi markaziy o'ringa qo'yilgan [5].

Shu o'rinda "ruh qanday poklanadi yoki qanday qilib ruhiy poklanishga erishish mumkin?", degan haqli savol paydo bo'ladi. Javobi qisqa va aniq: buning yo'li bitta – u ham bo'lsa, nafsni yengishdir.

Nafs – sog'lom tafakkurga, ma'nan yuksaklik va ruhiy poklikka zid, ularga to'sqinlik qiluvchi insonning ichki illatlari, tarbiyalanmagan instinktlaridir. Nafs tushunchasi keng, qirralari behisob, ko'rinishlari rang-barang. Johillik, ilmsizlik, mutaassiblik, manmanlik, kibr-u havo, mol-dunyoga o'chlik, zulm, o'g'rilik, tanballik, g'urur, tama, baxillik, ko'rolmaslik, mansabparastlik, shahvatga berilish, g'azab, xasislik, umuman, inson ruhini bulg'aydigan, Haq va haqiqatdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig'indisi nafs deyiladi.

Muqaddas Qur'on va hadislarga ko'ra, bu dunyodagi eng og'ir kurash insonning o'z nafsi bilan kurashi, eng og'ir ish nafsni yengish, jilovlashdir.

Nafsni yengish vositasi esa ishq deb ko'rsatiladi. Ishq ham xuddi nafs kabi ko'p qirralidir. Uni faqat mehr-muhabbat, sevgi ma'nosidagina tushunmaslik kerak.

Tasavvufda ishq va nafs bir-biriga qarama-qarshi ikki asosiy kategoriya hisoblanadi. Ular inson botinida doimo kurashda. Bu kurash natijasi o'laroq ruhiyatda o'zgarishlar yuz beradi. Ishq g'olib bo'lsa, ruh poklanib komillashadi, nafs yengar bo'lsa, ruh bulg'anib, inson tubanlashadi.

Tasavvufda ishqni shakllantirish, nafs yengish yo'llari mavjud. Bu yo'llar tariqat deyiladi. Tariqat arabcha so'z bo'lib, yo'l degan ma'noni anglatadi. Adabiyotlarda Islom dini bilan bog'liq o'ndan ortiq tariqatlar borligi haqida ma'lumotlar beriladi. Har bir tariqatda ruhiy poklikka erishishning o'ziga xos shakllari, usullari bor. Ular dunyoga taniqli ulug' shayxlar manoqiblarida, ayrim tariqat peshvolarining risolalarida bayon etilgan. Mazkur manbalarda komil inson konsepsiyasining nazariy asoslari, amaliy ko'rinishlari goh ochiq, goh ishoralar bilan bayon etiladi.

Tariqatlarda tarbiya ustoz-shogird shakliga monand murshid-murid usulida bo'ladi. Murid o'ziga murshid (pir) tanlaydi. Murshidlar ma'lum bir hududda o'zining komilligi, olimligi bilan mashhur bo'lgan

tariqat rahbarlaridir. Murid o‘zi tanlagan murshidning vazifa va ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajaradi. Ularning o‘rtasidagi munosabat ishq (yuksak hurmat, oliy ehtirom) asosiga quriladi. Murshidga bo‘lgan ishq tufayli muridda unga taslimiyat hosil bo‘ladi. O‘ziga yuklatilgan topshiriqlarni og‘ir bir majburiyat yuzasidan emas, balki ichki ma’naviy ehtiyoj, komillashishning vositasi sifatida bajonidil ado etadi. To‘g‘ri, tariqatga kirishandan keyin murid kuchliroq nazorat ostida bo‘ladi. Chunki unda hali ishq shakllanmagan. Ishq shakllanib, murid uchun komillashish ma’naviy ehtiyojga aylangach, u zohiriy nazoratdan deyarli ozod bo‘ladi. Endi u komillashishga, ruhiy poklanishga o‘zi intiladi, o‘zini o‘zi nazorat etadi, tahlil qiladi. Buning uchun tariqatning ilk bosqichida o‘ziga qo‘yilgan asosiy talab – ilmga butun borlig‘i bilan beriladi. Tasavvufda majburlash, zo‘rlik billan ushlab turish yo‘q. Murid istagan vaqtida tariqatdan chiqishi mumkin. Lekin bu so‘fiylar nazdida eng og‘ir insoniy fojeadir. Chunki tariqatdan ketish ruhiy poklanish, komillashish va shu yo‘l bilan tom insoniy maqomga ulashlish imkoniyatidan yuz o‘girish demakdir. Albatta, bir maqola doirasida bu haqda mufassal to‘xtalishning iloji yo‘q. Biz tariqatni butun jamiyat yoki ta’lim tizimiga bor holicha tatbiq qilish kerak degan fikrdan yiroqmiz. Chunki bu hozir imkoniyatdan tashqari narsa. Lekin tasavvufdagi komil insonni tarbiyalashning asrlar davomida sinovdan o‘tgan tajribalari borki, ularni hozirda ta’lim tizimimizga tatbiq eta olsak, tub burilishlar yasash mumkin. Bunda eng asosiy nuqta yoshlar ta’limi va tarbiyasini zimmasiga olgan shaxslarning barkamollik borasida ibrat va namuna bo‘lishlaridir. Bizdagi joriy ta’lim tizimida maktablarning boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus va hatto oliy o‘quv yurtlarida majburlash, baholash, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish kabi tashqaridan ta’sir etish vositalari orqali bilim beriladi. Ta’limda bu vositalar yetakchi. Ko‘rib turganimizdek, ularning natijalari ko‘ngildagidek emas. Aybdor sifatida ba’zan o‘qituvchi, ba’zan mavjud tizim yoki iqtisodiy tanglik va hokozolar ko‘rsatib kelindi. Albatta, bu omillar u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ammo ular asosiy aybdor omillar emas. Bizningcha, ta’limning mohiyatini, maqsadini, usul va shakllarini o‘zgartirish kerak. Biz so‘z yuritayotgan barkamol avlod konsepsiyasida ta’lim, tarbiya tizimi qanday tashkil etilgani bilan tanishaylik.

Tasavvufda hayotning barcha sohalari, jabhalarida bo‘lgani kabi ilmda ham asosiy e’tibor ishqni shakllantirishga qaratiladi. Ilmdagi ishq talaba uchun ilmni ma’naviy ehtiyojga aylantirishi tushuniladi. Unda ishqni tarbiyalash uchun avvalo ilmga bo‘lgan talabni shakllantirish zarur. Talab, hozirgi ifodada, ilmga bo‘lgan qiziqishdir. Talab, ya’ni qiziqish dunyoni, ilohiyotni va o‘zlikni bilishga intilishdan hosil bo‘ladi. Inson dunyoni, ilohiyotni anglash talabiga tushar ekan, tasavvuf, eng av-

valo, unga o‘zini bilishni taklif etadi. Tasavvufga ko‘ra, insonda jamiyat, davlat, borliq dunyo, koinot va ilohiyotga xos bo‘lgan jihatlar mukammal va ixcham tarzda jo etilgan. Talaba (o‘quvchi) kelajakda kim bo‘lishi, qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘z o‘rnida mukammal bo‘lishi uchun o‘zining jismoniy ichki va tashqi a’zolarini, ularning vazifalarini yaxshi bilmog‘i kerak. Bu haqda bir qator tasavvuf asarlarida bayon etilgan. Misol tariqasida Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi XX bobdan olingan ayrim parchalar [7] mazmuniga e’tibor qaratamiz.

Navoiy insonning tuzilishini, ya’ni gavdasini mamlakatga o‘xshatadi. Bu mamlakat ikki ustun uzra joylashtirilgan. Uning ichida bozor, mahalalar, ko‘chalar, mayxonalar bor. Mamlakat o‘rtasida bir taxt bo‘lib, shu yerdan mamlakat boshqariladi. Taxtda bir hol yuz bersa, hamma iqlimga ta’sir ko‘rsatadi. Taxtda tinchlik bo‘lsa, hamma joyda ham tinchlik, tinchlik bo‘lmasa, hamma notinch. Uning eng tepasida bir qasr bo‘lib, uning tuzilishi har qanday nozik aqlni ham hayron qoldiradi. Bu qasrga tabaqalari qizil la’ldan bo‘lgan bir eshik ochib qo‘yilgan; uning ovozidan dur-u gavharlar sochiladi.

Olingan bu parchada a’zolar tafsiloti tushirib qoldirilib, ma’nosi ham o‘ta qisqa tarzda keltirildi. Endi shu parchani sharhlaylik. Mamlakat – inson gavdasi. Demak, inson o‘z tanasiga fikr qilib, jamiyatni qanday boshqarish, qanday qilib mamlakatni mukammal tarzda tuzish mumkinligini anglash lozim. Tashqi va ichki a’zolar, ularning tuzilishi, o‘zaro bog‘liqligi, munosabatiga qarab, davlatning ichki tuzilmalari, ularning vazifasi, faoliyat shakli, tashqi va ichki siyosat yuritish andozalarini olish mumkin. Mamlakat (gavda) joylashgan ikki ustun – ikki oyoq. Ikki oyoqning ham ramziy ma’nosi bor: mamlakatni tik ushlab turadigan bir oyoq (ustun) adolatli qonunlar bo‘lsa, ikkinchi oyoq imon-u e’tiqod (mafkura). Mamlakat ichidagi bozor – organizmdagi modda almashinuvi (ya’ni iqtisodiyot), mahallalar – ma’lum vazifani bajaruvchi buyrak, jigar, o‘pka kabi ichki a’zolar (ya’ni siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar), ko‘chalar – ichaklar (yo‘l, transport, aloqa kabi xizmat tarmoqlari), mayxonalar – qon tomirlari (ya’ni madaniy-maishiy, ta’limiy muassasalar).

Yurak – mamlakat taxti. Har bir fuqaro bilmog‘i lozimki, mamlakatda amirlik joriymi, qirollik yoki imperatorlik yoxud prezidentlikmi – u yurtning yuragidir. Yurak esa sog‘lom bo‘lishi, toza tutilishi, ehtiyot qilinmog‘i lozim.

Eng yuqoridagi qasr – bosh. Mamlakatga tatbiq etadigan bo‘lsak, u – hukumat. Yurtning boshi bo‘lmish hukumat sog‘lom fikrli, oqil bo‘lsa, taraqqiyotning bo‘lishi muqarrar. Qasr (bosh)ning eshigi deb

og‘iz nazarda tutilgan. Navoiy uning ochilishida dur-u gavhar sochiladi deb og‘izdan chiqadigan gap, so‘zlarga ishora qilgan. Hukumat (qasr) ning og‘zi – matbuot, uning so‘zlari qonunlar, farmonlar, ko‘rsatmalar. Bu qonun, farmon, ko‘rsatmalar o‘rinli va adolatli bo‘lib, o‘z vaqtida chiqsa, ular xalq uchun dur-u gavhardek qimmatga ega bo‘ladi.

Biz asarning kichik bir bobidagi ayrim parchalarni muxtasar sharhladik. Navoiy organizmning har bir a’zosini mufassal ravishda ana shunday bayon etadi. Buyuk bobokalonimiz tasavvufdagi barkamol avlod (komil inson) konsepsiyasining tolmas targ‘ibotchilaridan bo‘lgan. U aytadiki, kishi o‘z jismoniyati orqali nafaqat mamlakatni, balki borliq dunyoni, koinotni, ilohiyotni anglashi mumkin.

Maqsadga qaytadigan bo‘lsak, o‘quvchi (talaba) o‘zida shuncha dunyo sir-sinoati yashiringanini bilgach, unda hayrat va qiziqish, ya’ni bilmoqlikka talab paydo bo‘ladi. Bu talab uni fanlarni egallashga yetaklaydi.

O‘zlikni anglash tana tuzilishidan boshlanar ekan, anatomiya faniga ehtiyoj tug‘iladi. Ichki, tashqi a’zolar, ularning vazifasi, ularda yuz beradigan jarayonlar biologiya, kimyo fanlariga yetaklaydi. Mazkur jarayonlar insonni qurshab turgan borliq va muhit bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun tabiatshunoslik, botanika, zoologiya va boshqalar o‘zlikni anglash jarayonini chuqurlashtirib boradi. Ana shu atrof-muhit va borliq esa cheksiz samoviy jarayonlar – koinot bilan uzviy bog‘liqlikda. Bu, o‘z navbatida, astronomiya, fizika, matematika kabi aniq fanlarga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Ko‘rinadiki, tasavvufda ta’lim jarayoni tashqi ta’sir yoki rag‘batlantirish tazyiqi ostida emas, balki talaba (o‘quvchi)ning o‘zi o‘rganayotgan ilmni nihoyasiga yetkazish, unga bo‘lgan cheksiz qiziqish, ya’ni ilmga ma’naviy ehtiyoj – ishq asosida tashkil etiladi. Ilmga mana shunday ma’naviy ehtiyoj sifatida yondashilsa, insonda aqliy, jismoniy, ma’naviy yangilanish yuz beradi. Birinchidan, o‘zligini anglagan, jismoniy tuzilishini yaxshi bilgan, tashqi muhitning o‘z ruhiy va jismoniy holatiga ta’sirini to‘g‘ri tushungan odam o‘z sog‘lig‘i, ruhiy va jismoniy muvozanati ustidan nazorat hamda g‘amxo‘rlik qila oladi. Ikkinchidan, o‘z sog‘ligi, jismoniy va ruhiy muvozanati atrof-muhitning, tabiatning sog‘lomligiga, musaffoligiga bog‘liqligini anglaydi va unga nisbatan cheksiz mehr uyg‘onadi, xuddi o‘ziga bo‘lganidek, butun borliqqa nisbatan g‘amxo‘rlik, mas’uliyat shakllanadi. Bu yerda atrof-muhit, borliq deganda nafaqat tabiat, shuning bilan birga jamiyat ham tushuniladi. O‘zlikni anglash xuddi o‘zi kabi “dunyo mo‘jizasi” bo‘lmish boshqa insonlarga nisbatan millati, dini, irqidan qat’iy nazar hurmatni tarbiyalaydi. Uchinchidan, ilmga ma’naviy ehtiyoj tufayli to‘plagan bilimlari orqali shuni anglab yetadiki,

o‘zlashtirilayotgan fanlar o‘z holicha alohida-alohida bilimlar yig‘indisi emas, balki yaxlit bir butun ilmning turli ko‘rinishlaridir. Fanlar bir-birini to‘ldiradi, izohlaydi, rivojlantiradi. Shu tufayli ular bir-birini taqozo etadi. Agar tariximizga nazar tashlasak, dunyoni hayratga solgan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy singari allomalarimiz aynan shu ta’lim tizimi, shu konsepsiya asosida ta’lim olganlar va qomusiy aql egalari bo‘lib yetishganlar. To‘rtinchidan, ko‘plab fanlarni egallagan aql egasi har bir inson, har bir jonzot va jonsiz narsa, jamiyat, dunyo, butun koinot yaxlit bir tizim (sistema), bu tizim ichidagi har kimsa, narsa, hodisa ko‘rinishlari uning o‘zaro chambarchas aloqadorlikdagi unsur (element)lari, bir unsurning inqirozi butun tizimning fojiasiga yoki ulkan o‘zgarishlariga sabab bo‘lishini nafaqat aql bilan anglab yetadi, shu bilan birga ruhan idrok etadi, his qiladi hamda qamrab oladi. Aql bilangina anglash hodisaning yarmini, ko‘p hollarda tashqi, shakliy jihatlarini bilishdir. Hodisani to‘liqroq qamrab anglash uchun yana ruhiy idrok, ruhiy sezgi ham zarurdir. Mana shu to‘rt xususiyatni o‘zida jamlagan odam har tomonlama – jismoniy, aqliy, ruhiy va ma’naviy sog‘lom, yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Mazkur ko‘hna va mukammal konsepsiyani hozirgi ta’lim jarayoniga qanday tatbiq etsa bo‘ladi?

Bu muammo ilg‘or pedagoglar, olimlar hamkorligida mukammal ishlab chiqilmog‘i lozim. Lekin uning shakl va mazmunini oldindan taxminiy belgilash mumkin. Hozirgi ta’lim bosqichlarining har biriga o‘ziga xos vazifa yuklatiladi. O‘qitish mazmuniga birmuncha o‘zgartirishlar kiritiladi, sifat jihatidan o‘qitish mohiyati yangilanadi.

Ta’lim jarayonining asosiy maqsadi ilmni, shuningdek, kasb yoki hunar olishni ma’naviy ehtiyojga (ishqqa) aylantirish bo‘lmog‘i kerak. Buning uchun avvalo o‘quvchida qiziqishni (talabni) hosil qilmoq lozim. Maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinf bosqichlarida savod chiqarish, o‘qish, yozish, hisoblash kabi ilk ko‘nikmalar bilan bir qatorda bolada qiziqish (talab)ni shakllantirish uchun zamin tayyorlanadi, kuzatish va tafakkur qilish ko‘nikmalariga zamin yaratiladi. Mazkur vazifa o‘ta mas’uliyatli, ta’lim jarayonining hal qiluvchi qismi bo‘lib, uning asosida mantiqiy fikr yuritish, milliy dunyoqarash, pokiza e’tiqodni shakllantirish yotadi. Busiz bo‘lmaydi. Butun Sharq mutafakkirlarining ustozi bo‘lmish Abu Homid G‘azzoliy qayd etganidek: "Kuzatish va fikrlash farosatni ochib yuboradi" [8]. Agar ma’naviyatni suyab turadigan e’tiqod, ishonch ustunlari bo‘lmasa, e’tiqodi puch, ma’naviyati mavhum o‘quvchiga qilinayotgan sa’y-harakatlar, sarflanayotgan mablag‘lar havoga sovrilishi muqarrar. Shu maqsadda xalqimizdan yetishib chiqqan Hamza, Abdulla Avloniy kabi milliy pedagogikamiz darg‘alari

tajribalaridan, ular yozgan darsliklardan ijodiy foydalanish lozim.

O‘rta ta’lim bosqichida qiziqish (talab)ni to‘la shakllantirib, tadrijiy ravishda ilmni ma’naviy ehtiyojga aylantirish uchun zamin tayyorlash asosiy maqsad qilib qo‘yiladi. Mazkur sinflarda, avval aytib o‘tganimizdek, fanlar o‘z holicha alohida shaklda emas, aksincha, o‘zaro aloqadorlikda, ularning bir-birini taqozo etishini, bir fan boshqalari uchun kalit bo‘lishini anglatgan holda bilim beriladi. Shunda, ba’zan biz guvohi bo‘layotganimizdek, ayrimlarning ijtimoiy fanlarga qiziqib, aniq fanlardan bosh achitqi deb bezishi, boshqalarning aniq fanlarga berilgani holda ijtimoiy bilimlarga mavhum tushunchalar deb qarash hollariga barham beriladi. Muhimi – o‘quvchining fanlarning yaxlit bir butunligini anglashi, ular orasidagi uzviy uyg‘unlikni his etishi. Bu bosqichda e’tiqod, ma’naviyat tushunchalari chuqurlashtirilib, o‘quvchi ma’naviyatiga singdirib boriladi.

Asosiy vazifa – ilmni ma’naviy ehtiyoj (ishq) darajasiga ko‘tarish. Umumiy o‘rta ta’lim bosqichida fanlararo aloqadorlikni, bir hodisaning o‘zaro yaqin predmetlar yoki bir qarashda bir-biridan uzoqdek ko‘ringan fanlarda aynan yoki o‘ziga xos ravishda bo‘lishi kabi holatlarni anglashda o‘qituvchining ko‘rsatishi, izohi ko‘proq o‘rin tutsa, bu jarayon yuqori sinflarda (shuningdek, o‘rta maxsus ta’limda) o‘quvchi-talaba ularni asta-sekin o‘zi kashf qila borishi kerak.

Shunday qilib, ta’limda fanlar ma’lum qonun-qoidalar yig‘indisi sifatida emas, balki har bir fan dunyoni idrok qilishning bir tayanch nuqtasi sifatida o‘qitilishi shart. Shunda o‘quv dargohlarini bitirajak yoshlar anglaydigan haqiqat shu bo‘ladiki, hayotda har bir kasb, hunar, mashg‘ulot asosida ilm va fanlarning o‘zaro aloqadorligi yotadi. Bularning bari yagona bir haqiqat, borliqni qamrab oluvchi yagona bir butun ilmni idrok etish imkonini beradi. Bu esa yoshlarning e’tiqodi but, ma’naviyati toza bo‘lishiga yo‘l ochadi. Yoshlarida ma’naviyat bo‘lmagan jamiyat kelajakda fojialarga mahkumdir. “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlasak, tasavvuf ta’limotini davlat mafkurasiga asos qilib olgan, Ikkinchi Renessansga tamal toshini qo‘ygan Temur va Temuriylar davlatida jamiyatning ma’naviy tozarishi, har bir fuqaroning o‘z kasbi, hunariga pok e’tiqod va halollik bilan yondashganligi haqida manbalarda ma’lumotlar mavjud. Masalan, “Boburnoma” da buyuk temuriy hukmdor Husayn Boyqaro zamoni haqida shunday deyiladi: “Sulton Husayn mirzoning zamoni ajib zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg‘ulligi bor edi, himmat va g‘araza ul edikim, ul ish-

ni kamolga (ta'kid bizniki – V.Q.) tegurgay" [9]. Yurtboshimiz: "...mustaqilligimizning oldingi bosqichlariga xos konsepsiyalar va dasturlarida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar va tashqi siyosat masalalari yetakchi o'rin egallaydi. Ammo ularda negadir ma'naviy-ma'rifiy sohalar, ushbu yo'nalishdagi islohotlar bilan bog'liq serqirra jarayonlar yetarlicha o'z aksini topmagan. Natijada esa ma'lum, ya'ni bugunga kelib ma'naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini qo'yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati ta'lidlangan. Shu munosabat bilan mamlakatimizning keyingi davrga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida, albatta, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga alohida bo'lim ajratilishi darkor, deb hisoblayman" [1] degan so'zlari yuqorida keltirilgan tarixiy asoslarga tayanadi.

Eski mafkura qon-qoniga singib ketgan ayrim shaxslar tasavvuf (tajalliy nazariyasi) ning Islom dini bilan bog'liqlikdagi ta'limot ekanligini eshitib, taraddud, hadik hamda ehtiyotkorlikka tushishlari mumkin. Ularga javob sifatida quyidagi mulohazalarni bildirishni ma'qul ko'rdik.

Birinchidan, Islom – buyuk insonparvarlik, pokiza iymon va e'tiqod dini. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugun aholi, ayniqsa, yoshlarimizga zamonaviy ta'lim-tarbiya bilan birgalikda qon-qonimizga singgan muqaddas dinimizning mohiyatini to'g'ri tushuntirib berishimiz, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalashimiz haqida jiddiy o'ylashimiz lozim" [1].

Ikkinchidan, tasavvuf Islom dinining o'zak mohiyatidan kelib chiqqan holda inson bolasini kamsitishning har qanday ko'rinishiga, millatchilik, irqchilikka, johillikka, eng avvalo, diniy jaholat va mutaassiblikka qarshi ayovsiz kurashuvchi ta'limotdir. Shuning uchun ba'zi mutaassib diniy oqimlar tasavvufni siyosiy faoliyatsizlikda, o'ta ortiqcha bag'rikenglikda ayblab, turli da'volar bilan uni qoralashga harakat qiladilar.

Uchinchidan, dunyo tarixida yorqin iz qoldirgan Amir Temur, Mahmud G'aznaviy kabi hukmdorlar davlatining mafkuraviy asosi tasavvuf ta'limoti bo'lgan.

Barcha aytilganlarga yakun sifatida fikrlarimizni quyidagicha xulosalaymiz:

Barkamol avlod tarbiyasi uchun qilinayotgan va qilinajak ishlar uzoq va yaqin o'tmishimizdagi yo'qotishlarni tiklash, kemtiklarni to'ldirish, bugungi kun va kelajak oldidagi mas'uliyatni his qilish natijasida yuzaga kelgan harakatdir.

Mazkur harakat Yurtboshimiz tomonidan o'z vaqtida nozik ilg'angan, o'tmishda o'zining tarixiy ildizlariga, an'analariga va tajribalariga

ega bo‘lgan jarayondir.

Pedagog va tibbiyot olimlari, boshqa soha mutaxassislari, barcha o‘zbek ziyolilari tasavvuf ta’limotini, undagi komil inson konsepsiyasini chuqur o‘rganib, unga jiddiy yondashgan holda, kerak bo‘lsa, boshqa an’analarning eng ilg‘or tomonlarini umumlashtirib, barkamol avlod konsepsiyasining ruhiy, ma’naviy, jismoniy, ta’limiy va tibbiy asoslari, dasturini ishlab chiqmoqlari lozim.

Shundagina biz ajdodlarimizning dunyo tamaddunida tutgan o‘rni, mavqeyiga munosib yo‘l tutgan bo‘lamiz, zero, “ajdodlarimiz o‘z vaqtida yuksak ma’naviyati, boy ilmiy merosi, ijodi bilan butun dunyoga ustozlik qilganlar. ... ular boshqalarga ergashmagan, boshqalarni o‘z ortidan ergashtirganlar” [1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
2. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
3. Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni / To‘plovchi va izoh mualliflari H. Homidiy, M. Hasaniy. – T.: Sharq, 2008.
4. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T., 1994.
5. Ma’naviyat yulduzlari: To‘plam. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. –
6. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
7. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T., 1989.
8. G‘azzoliy Abu Homid. Mukoshafatul qulub. – T.: Munir, 2025.
9. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha, 1989.